

«Sahna nutqi masalalari: muammo va yechimlar» mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

ugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida «Sahna nutqi masalalari: muammo va yechimlar» mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Anjumanni kirish so'zi bilan ochib berar ekan, institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev bugungi axborot asrida insonlarga ma'lumotni yetkazib berishda texnik imkoniyatlar bilan bir qatorda axborot yetkazuvchining nutqi va uning ta'sirchanligi ham muhim ahamiyatga ega ekanligini, shu bilan birga, sohada tadqiq qilinishi, o'rganilishi lozim bo'lgan jihatlar ham ko'pligini, bugungi anjuman sohaning ayni paytdagi mavjud muammolariga yechim topishda hamda rivojiga hissa qo'shuvchi muhim tavsiyalarga boy bo'lishiga umid bildirib, konferensiya ishiga muvaffaqiyat tiladi.

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist, oliy toifali sxandon Nasiba Ibragimova san'atkorning sahnadagi nutqi, intonatsiyasi, nutqining ravonligi kabi jihatlarni ilmiy tahlil qilish, televedeniye, teatr, kino va umuman madaniyat va san'at sohasi rivoji uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etdi hamda o'zbek sxandonligi tarixi, bugungi kundagi tendensiyalari va ertangi rivojiga doir fikr-mulohazalarini bildirib o'tdi.

Konferensianing yalpi majlisida "Respublika teatrlarida sahna nutqining dolzarb muammolari", "Sahna nutqi tarixini tizimli o'rganishning dolzarbliyi", "Kerkem ener mektebin jaratqan

aktyor”, “Talaffuz ifoda tizimlarini takomillashtirishda tovushli birikmalar” va boshqa ko’plab e’tiborli ma’ruzalar yig’ilganlar e’tiboriga havola etildi.

Shundan so’ng ilmiy anjuman “Sahna nutqi tarixini tizimli o’rganishning dolzarbligi”, “Aktyorlik mahorati va sahna nutqi fanlarining o’zaro uyg’unligi: nazariy va amaliy masalalari, muammolari, yechimlari”, “Teatr, kino, televideniye va radioda sahna nutqi: yutuqlar, dolzarb muammolar va yechimlar”, “San’at va madaniyat sohasida malakali kadrlar tayyorlashda sahna nutqi metodikasidagi yangi izlanishlar, muammolar va yechimlar” nomli sho’balarda davom ettirildi.

“Allegoriya” deb nomlangan spektaklining namoyishi bo’lib o’tdi

Bugun O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev O’quv teatrida «Estrada va ommaviy tomoshalar san’ati» kafedrasi mudiri, professor Temur Rashidov tomonidan «Estrada aktyorligi san’ati» ta’lim yo’nalishi 4-kurs talabalari bilan bиргаликда sahnalashtirilgan “Allegoriya” deb nomlangan spektaklining namoyishida ishtirok etdi.

Buyuk mutafakkir alloma Jaloliddin Rumiyning hikmatlari asosida sahnalashtirilgan mazkur spektakl umumbashariy qadriyatlar – tinchlik, ezgulik, go’zallik, insoniylik, ornomus, odob-axloq, oljanoblik kabi mavzularni qamrab olgan bo’lib, 16 ta sahnadan iborat.

Har bir sahna mutafakkirning bir hikmati asosiga qurilgan

bo'lib, ushbu hikmatning mazmun-mohiyati haqida tushuncha beradi.

Spektakl soha mutaxassislari tomonidan iliq kutib olinib, professional rejissura, zamonaviy uslubdagi aktyorlik ijrosi, sahna madaniyati, ssenografiya, musiqa va yoritish bezagi alohida e'tirof etildi.

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori rahbarligida yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va tayanch doktorantlar ishtirok etdi.

Yig'ilish avvalida institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev Rossiya Federatsiyasi Butunrossiya Davlat kinematografiya universitetida o'tkazilgan «Восхождение» II xalqaro talabalar kinofestivalida institut nomidan ishtirok etgan Ovoz rejissorligi va opreatorlik mahorati kafedrasi dotsenti Diloram Mirsaidova, Kinoteleoperatorlik ta'limga yo'nalishi 3-bosqich talabasi Mansurbek Umurzakov hamda San'atda animatsiyaviy va multimediyaviy loyihalash ta'limga yo'nalishi 2-bosqich talabasi Diyorbek Erkinbayevlarni tashakkurnoma bilan taqdirladi.

Xabaringiz bor joriy yilning sentabr oyida Farg'ona viloyatida

“Xush kayfiyat” ko‘rik-tanloving respublika bosqichi o’tkazildi. Ushbu tanlovnинг Qiziqchilik yo’nalishida Teatr san’ati fakulteti Musiqali teatr aktyorligi ta’lim yo’nalishi sirtqi ta’lim 5-bosqich talabasi Bahodir Fozilov 2-o’rinni egallagan edi.

Ushbu iqtidorli talabaning ham yutuqlari e’tirof etilib, tashakkurnoma bilan taqdirlandi.

■■Shundan so‘ng yig’ilishda institutda ilmiy sohada olib borilayotgan ishlar, tayanch doktorantlarning ilmiy tadqiqotlari tanqidiy va tahliliy ko’rib chiqildi hamda ilmiy sohani rivojlantirish bo'yicha bir qancha vazifalar belgilab olindi.

Ushbu masalalar yuzasidan mutasaddilarning axborotlari tinglandi hamda barcha mas’ullarga tegishli topshiriqlar berildi.

Yig’ilishda Nodirbek Sayfullayev har qanday sohaning taraqqiyoti uning ilmiy-nazariy asosining mustahkamligi bilan ham chambarchas bog’liq ekanligini, institutda asosiy e’tibor ijodiy yo’nalishlarga qaratilgan bo’lsa-da, pedagog kadrlar o’z sohalari bo'yicha ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borishlari zarurligini aytib o’tdi hamda ilmiy sohani rivojlantirish yuzasidan har qanday taklif va g’oyalarni qo’llab-quvvatlashga va birqalikda rivojlantirishga tayyor ekanligini yana bir bor ma'lum qildi.

Geochang teatr maktabi

talabalari va professor-o'qituvchilarining tajriba almashinuvi davom ettirildi.

0'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bo'lib turgan Koreya Respublikasining Geochang teatr maktabi talabalari va professor-o'qituvchilarining tajriba almashinuvi davom ettirildi.

□Bugun 0'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Sahna harakati va jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti Nazriddin Shermatov "Andijon polkasi" raqsi harakatlari asosida "0'zbek raqs maktablari" mavzusida mashg'ulot olib bordi.

□Shuningdek, Vokal kafedrasi mudiri, dotsent Saodat Muzaffarova tomonidan esa "Dasturiy asarda musiqiy va adabiy matnlar ustida ishlash" mavzusida mahorat darsi olib borildi. Ushbu mashg'ulot uchun Farrux Zokirovning "Toshkentim-onam" qo'shig'i tanlandi.

"Jadidlar. maktublar" ko'rgazmasi

Turkistonga multimedia

➤ 0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti tyutorlari – Nafosat Shodiyeva hamda Xurshida Haqbayevalar boshchiligidagi talabalar Toshkent City Mall savdo markazida "Jadidlar. Turkistonga maktublar"

nomli jadidlarning ta'lif va maorif tashabbuslariga bag'ishlangan multimedia ko'rgazmasida bo'lishdi.

□5 ta alohida bo'lmadan iborat ko'rgazmada Germaniyaga o'qishga yuborilgan turkistonlik talabalarning tarixi ochib berilgan. Talabalar ushbu sayohat davomida ilm yo'lida zahmat chekkan bobolarimizning hayot yo'li, qiyinchiliklari va ularning ezgu orzu-maqsadlari haqida ko'plab ma'lumotga ega bo'lishdi.

seysmik xavfsizlikni vazifalari ta'minlash yuzasidan davra suhbati bo'lib o'tdi

□Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida talabalarga seysmik xavfsizlikni ta'minlash vazifalari haqida tushuncha berish maqsadida Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti katta ilmiy xodimi Nishonov Ne'matilla Asatilayevich hamda Seysmologiya instituti Geologiya va mineralogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Zuxriddin Shukurovlar ishtirokida ZOOM platformasi orqali davra suhbati o'tkazildi.

□O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-apreldagi "Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-161-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan davra suhbatida talabalarga seysmik holatning yuzaga kelish sabablari, bunday holat yuz berganda qanday yo'l tutish kerakligi borasida

batafsil tushunchalar berildi.

Geochang teatr maktabi direktori Kan Manxo, o'qituvchilar – Kang Inchul, Kim Jinog, Ryu Joouklar hamda maktab talabalarini tashrif buyurdi.

Avval xabar berilganidek, joriy yilning 16-avgust kuni Koreya Respublikasining Geochang teatr maktabi direktori Kan Manxo boshchiligidagi maktab vakillari O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga tashrif buyurib, institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev bilan uchrashgan hamda teatr maktabi professor-o'qituvchilar va talabalarining institutda qisqa muddatli tajriba almashinuvida ishtirok etishi va boshqa bir qator masalalar kelishib olingan edi.

Bugun ushbu kelishuvga muvofiq institutga Geochang teatr maktabi direktori Kan Manxo, o'qituvchilar – Kang Inchul, Kim Jinog, Ryu Joouklar hamda maktab talabalarini tashrif buyurdi.

Tashrif davomida institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev hamda Geochang teatr maktabi direktori Kan Manxo o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

□ Uchrashuv avvalida Nodirbek Sayfullayev mehmonlarni ko'rib turganidan mammunligini, o'zbek va koreys madaniyatida umumiy jihatlar ko'p ekanligini, shu ma'noda, yurtimizda koreys

madaniyati va san'atiga qiziqish yuqoriligini aytib, o'zaro hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish lozimligini, bu esa ikki oliy ta'lif muassasining rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

0'z navbatida, Kan Manxo ham institutdagi ijodiy muhit unda va talabalarida ijobiy taassurot qoldirganini, ikki oliy ta'lif muassasi o'rtasida o'rnatilgan hamkorlikdan juda ham mamnun ekanligini va ulkan natijalar kutayotganini, bu hamkorlik orqali o'zbek va koreys madaniyatini uyg'unlashtirgan yirik madaniy loyihalar yaratish mumkinligini alohida qayd etib o'tdi.

Uchrashuv yakunlariga ko'ra tomonlar o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

Memorandumda talabalar, professor-o'qituvchilar va xodimlar almashinuvini tashkil etish va mahorat darslari, seminarlar o'tkazish, o'zaro o'quv jarayonida foydalaniladigan kontentlarni almashish va yangi qo'llanmalar yaratish, teatr texnologiyalar sohasida hamkorlik o'rnatish, birlgilikda spektakllar sahnalashtirish kabi bir qator masalalar kabi bir qator masalalar qamrab olindi.

0'zDSMIda zakovat ligasi 1-tur bahslari bo'lib o'tdi

→ Bugun 0'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Yoshlar yetakchisi Izzatullo Tursunpo'latov rahbarligida talabalar o'rtasida «Zakovat» intellektual o'yining yangi mavsumi boshlandi. Oktabr oyining 1-tur bahslarida 4 ta fakultetdan jami 8 ta jamoa ishtirok etdi.

→ Eslatib o'tamiz g'olib jamoa har oyning so'ngida aniqlanadi va ko'chma kubok taqdim etiladi.